

YANGI O'ZBEKISTONDA HUQUQ SOHASIDAGI ISLOHOTLARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Shodiyeva E'zoza Ilhom qizi

CHDPU magistr

E-mail: shodiyevaezoza23@gmail.com

Ilmiy rahbar: professor G.Gaffarova

Annotatsiya. Ushbu maqolada Yangi O'zbekiston davrida amalga oshirilayotgan huquqiy islohotlarning asosiy yo'nalishlari va ularning o'ziga xos xususiyatlari tahlil qilinadi. Jumladan, inson huquq va erkinliklarini ta'minlash, sud-huquq tizimini demokratlashtirish, korrupsiyaga qarshi kurashish hamda fuqarolarning huquqiy madaniyatini oshirish borasidagi chora-tadbirlar yoritiladi.

Kalit so'zlar: huquq, islohot, konstitutsiyaviy huquq, davlat, huquqiy madaniyat, ijtimoiylik, xalqaro tashkilotlar, inson huquqlari, strategiya, huquqiy savodxonlik, sud hokimiyati.

ОСОБЕННОСТИ ПРАВОВЫХ РЕФОРМ В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ

Шодиева Эзоза Ильхом кызы

Магистр ЧДПУ

Научный руководитель: профессор Г. Гаффарова

Аннотация. В данной статье анализируются основные направления и особенности правовых реформ, осуществляемых в период Нового Узбекистана. Особое внимание уделяется мерам по обеспечению прав и свобод человека, демократизации судебно-правовой системы, борьбе с коррупцией, а также повышению правовой культуры граждан.

Ключевы слова: Право, реформа, конституционное право, государство, правовая культура, социальность, международные организации, права человека, стратегия, правовая грамотность, судебная власть.

DISTINCTIVE FEATURES OF LEGAL REFORMS IN NEW UZBEKISTAN

Shodiyeva Ezoza Ilkhom qizi

Master of CSPU

Scientific supervisor: Professor G. Gaffarova

Abstract. This article analyzes the main directions and distinctive features of legal reforms implemented during the period of New Uzbekistan. Special attention is given to measures aimed at ensuring human rights and freedoms, democratizing the judicial and legal system, combating corruption and improving the legal culture of citizens.

Key words: law, reform, constitutional law, state, legal culture, sociality, international organizations, human rights, strategy, legal literacy, judiciary.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan keng qamrovli olib borilayotgan siyosiy, ijtimoiy va huquqiy o'zgarishlar davlat va jamiyat hayotining barcha jabhalarida tub burilishlarga sabab bo'lmoqda. Ushbu islohotlarning markazida inson huquqlari va manfaatlarini ustuvor qo'yish, huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini shakllantirish kabi ustuvor maqsadlar turibdi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, aynan huquq sohasidagi yangilanishlar Yangi O'zbekiston taraqqiyotining huquqiy poydevorini mustahkamlashda hal qiluvchi omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Bugungi kunda qator sohalarda olib borilayotgan islohotlarning samarasi fuqarolarning qonun oldida tengligi, insonparvarlik, adolatlilik, qonun ustuvorligini ta'minlanishiga bog'liq. Yangi O'zbekiston davrida davlat boshqaruvi, inson huquqlari, sud-huquq tizimi va qonunchilik sohasida tub islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu islohotlar zamirida, eng avvalo, inson manfaatlarini, adolat va qonun ustuvorligini ta'minlashga qaratilgan yondashuv mujassam. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev bu borada quyidagicha ta'kidlaydi: "Biz yangi O'zbekistonni barpo etishda, avvalo, qonun ustuvorligi va adolat tamoyillarini hayotimizning bosh mezoniga aylantiramiz. Huquqiy demokratik davlat qurish – bizning ustuvor maqsadimizdir". Albatta, yangi kontitutsiyaviy islohotlar doirasida inson huquqlari kafolatlarini kengaytirish, fuqarolarning qonuniy manfaatlarini himoya qilish va sud tizimini raqamlashtirish kabi yangiliklar joriy etilmoqda. Masalan, "Elektron sud" tizimining joriy qilinishi adolatga tezkor va shaffof erishish imkoniyatlarini kengaytirdi. Ushbu yo'nalishdagi islohotlar xalqaro hamkorlikni rivojlantirish va O'zbekistonning jahon iqtisodiy maydonida o'rni kuchayishiga xizmat qilmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI

Mamlakatimizda so'ngi yillarda huquqiy islohotlar davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylangan. Shu sababli, O'zbekistonda amalga oshirilayotgan huquq sohasidagi islohotlar va ularning ahamiyati va xususiyatlari mavzusi ko'plab mutaxassis professorlar, o'qituvchi va olimlar tomonidan o'rganilgan. Xususan, tarixchi olimlardan B.Xasanovning "O'zbekiston huquq tizimining modernizatsiyasi", A.Qahhorovning "Yangi O'zbekistonda huquqiy islohotlarning zamonaviy talqini", M.Egamberdievaning "Sud-huquq tizimi va inson huquqlari", N.Abduazimovning "O'zbekiston jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya qilish yo'lida" va Q.Usmonov, Sh.Sharopov, R.Sangirov, N.Beknozovlarning "O'zbekiston siyosiy-huquqiy islohotlar sari" kitobi, Z.Boboqulovning "Konstitutsiyaviy islohotlar – taraqqiyot omili" nomli shunga o'xshash ko'plab asarlar va kitoblar shular jumlasidandir.

Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning "Hozirgi zamon va Yangi O'zbekiston" kitobida ham so'ngi yillarda O'zbekistondagi ijtimoi-iqtisodiy islohotlar, mamlakatning xalqaro miqyosdagi o'rni yoritilgan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining 2023 yilda qabul qilingan yangi Konstitutsiyasida inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlash

masalasiga alohida urg'u berilgani, sud – huquq tizimi mustaqilligi mustahkamlangani qayd etilgan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Yangi O'zbekistonda huquq sohasidagi islohotlar mamlakatda adolat va qonun ustuvorligini ta'minlashga, aholining huquqiy madaniyati va huquqiy savodxonligini oshirishga qaratilgan.

Mamlakatimizda oxirgi yillarda sud hokimiyati ya'ni sud-huquq tizimida, xuusan, odil sudlovga erishishda qator maliy ishlar bajarildi, eng avvalo, huquqiy asoslar mustahkamlandi. Jumladan, Prezidentimizning 2017-yil 21-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasi sud tizimi tuzilmasini tubdan takomillashtirish va faoliyati samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni bilan yagona sud amaliyotini ta'minlash maqsadida Oliy sud va Oliy xo'jalik sudi fuqarolik, jinoiy, ma'muriy va iqtisodiy sud ish yurituvi sohasida sud hokimiyatining yagona oliy organi – O'zbekiston Respublikasi Oliy sudiga birlashtirildi. Shuningdek, 2018- yilda Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeks qabul qilindi. Mazkur hujjat ma'muriy yustitsiyani yanada takomillashtirishning fundamental asoslarini mustahkamlangani quyidagi raqamlarda ham o'z aksini topadi.

2017-2024-yillar oralig'ida aynan ma'muriy sudlar tomonidan qariyb 120 mingta ariza va shikoyatlar ko'rib chiqilib, shundan 60 foiziga yaqini qanoatlantirilgan. Prezidentimizning 2025-yil 30-yanvardagi Prezidentimizning «Fuqarolar va tadbirkorlik sub'ektlarining huquqlarini sud orqali himoya qilishning zamonaviy mexanizmlarini joriy etish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarori qabul qilindi. Zero ushbu hujjat bilan ma'muriy sudlar faoliyatiga ilg'or xorijiy tajribada o'zini oqlagan institut va tartiblarni keng qo'llash orqali fuqarolar va tadbirkorlik sub'ektlarining huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilishda ushbu sudlarning rolini oshirishga doir muhim vazifalar belgilab berildi.

Ta'kidlash joizki, mustaqillik yillarida yangi o'zbek milliy huquqiy tizimi tubdan shakllandi. Ijtimoiy jihatdan yo'naltirilgan erkin bozor iqtisodiyoti tamoyillariga asoslangan demokratik davlatning kontitutsiyaviy va huquqiy asoslari yaratildi. Yurtimizda huquq va erkinlikni ta'minlash, adolatni qaror toptirish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar bugun nafaqat davlat balki BMT va boshqa xalqaro tashkilotlar tomonidan e'tirof etilib, qo'llab-quvvatlanmoqda. Insonni ulug'lash uni konstitutsiyaviy huquqlarini muhofaza qilish va kamol toptirish yangi O'zbekistonning asosiy g'oyasiga aylantirildi.

Yangi O'zbekistonning 2022-2026-yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasi va uni 2022-yilda amalga oshirish bo'yicha «yo'l xaritasi»da inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish; mamlakatimizda ijtimoiylik prinsiplariga asoslangan, adolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini taraqqiyotning eng asosiy va zarur shartiga aylantirish ustuvor vazifa sifatida belgilab berildi

Mamlakatimizda fuqarolarning huquq va erkinliklari kafolatlarini kuchaytirish, jumladan qiynoqqa solish va boshqa qadr-qimmatni kamsituvchi muomala va jazo turlarini qo'llash holatlariga yo'l qo'ymaslik, erkinligi cheklangan shaxslar

saqlanadigan joylarga monitoring tashriflarni muntazam amalga oshirish bo'yicha samarali huquqiy mexanizmlarni yaratish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Qiynoqqa solish holatlarini aniqlash va ularning oldini olish tizimini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida» PF-5163-sonli Qarori e'lon qilingan edi. Mazkur Qarorga muvofiq, Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakili (Ombudsman) huzuridagi ekspert guruhi negizida Ombudsman huzuridagi qiynoq holatlarini aniqlash va oldini olish bo'yicha jamoatchilik guruhlarini tashkil etish va ularning asosiy vazifalari belgilab berildi.

Ombudsman tomonidan har yili 15-martga qadar Oliy Majlis palatalariga qiynoqqa solish va boshqa shafqatsiz g'ayriinsoniy munosabat hamda jazo turlarini qo'llash holatlarini oldini olish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar yuzasidan ma'ruzani taqdim etish va uni ommaviy axborot vositalarida e'lon qilish amaliyotini yo'lga qo'yish belgilab berildi.

Shuningdek, huquqiy islohotlar doirasida fuqaro huquqlarini himoya qilish mexanizmlari takomillashtirildi. Misol uchun, mustaqil advokatlik intitutining kengayishi va O'zbekiston Respublikasining Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman) institutining kuchaytirilishi fuqarolarning huquqiy himoyasini yangi bosqichga olib chiqdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 10-sentabrdagi „O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman) faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonining ijrosini ta'minlash maqsadida Ombudsman manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda ilg'or xalqaro tajribani o'rgangan holda yangi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman) to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining qonun loyihasini ishlab chiqdi. Ushbu farmonlar va o'zgarishlar mamlakatimizda inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilish ularning o'z konstitutsiyaviy huquqlarini mukammal bilib, shuningdek, ularning huquqiy savodxonligi oshishiga ham xizmat qiladi.

Yangi O'zbekistonda olib borilayotgan barcha huquqiy islohotlar zahirida inson manfaatlarini yuksaltirish, ularni huquqiy madaniyatini oshirish, korrupsiyaga qarshi kurashib, sud-huquq va ta'lim tizimini shaffof shaklga keltirish, jamiyatni qonun va adolat ustuvor bo'lgan kuchli demokratik davlatga aylantirish istagi yotadi.

XULOSA

Mamlakatimizda huquq sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar chuqur mazmuni, bosqichma-bosqichligi va inson manfaatlariga yo'naltirilganligi bilan ajralib turadi. Mazkur islohotlar nafaqat ichki huquqiy tizimni modernizatsiya qilish, balki xalqaro standartlarga mos demokratik huquqiy davlatni shakllantirish yo'lidagi qat'iy qadamlar sifatida e'tirof etiladi. Bu boradagi sa'y-harakatlar natijasida O'zbekistonning xalqaro maydondagi obro'si ortib, fuqarolarning davlatga bo'lgan ishonchi mustahkamlanmoqda. Shu tariqa, Yangi O'zbekiston huquqiy asoslari tobora mutahkamlanib, fuqarolik jamiyati rivoji uchun mustahkam poydevor yaratilmoqda.

Mazkur o'zgarish va islohotlar natijasida O'zbekistonning huquqiy tizimi jiddiy o'zgarishlarga uchradi. Jumladan, korrupsiyaga qarshi kurashda sezilarli

yutuqlar qo‘lga kiritildi, sud tizimining mustaqilligi oshdi va sudlarning qarorlarini jamoatchilik oldida oshkora qilish darajasi yuqoriladi. Bu esa sud tizimiga nisbatan ishonchni oshirishga xizmat qildi. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi va prokuratura organlarida joriy etilgan elektron nazorat tizimlari yordamida mansabdor shaxslarning noqonuniy harakatlarini aniqlash va oldini olish imkoniyati oshdi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Mirziyoyev Sh. Yangi O‘zbekiston Taraqqiyot strategiyasi - Toshkent: O‘zbekiston, 2022.
2. Huquqiy jamiyat va taraqqiyotimizning mustahkam poydevori // 2021-yil 6-dekabrda Konstitutsiyamiz qabul qilinganining 29 yilligi munosabati bilan Ichki ishlar vazirligi akademiyasida ilmiy-amaliy anjuman, akadmvd.uz
3. Inson huquqlari sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar // 2024-yil 24-fevral kuni O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Spikeri, siyosiy partiyalar fraksiyalari rahbarlari va bir guruh deputatlarning “Inson huquqlarini ta’minlash davlatlarning barqaror rivojlanishining poydevori” mavzusidagi xalqaro konferensiya, ombudsman.uz
4. Harakatlar strategiyasi bilan besh yil: islohotlar sarhisobi, 2022.02.08 <https://old.gov.uz>
5. «O‘zbekiston Respublikasi sud tizimi tuzilmasini tubdan takomillashtirish va faoliyati samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida’gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 21.02.2017 yildagi PF-4966-son.
6. «Sud-huquq tizimini yanada isloh qilish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish chora tadbirlari to‘g‘risidagi’ - O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 21.10.2016 yildagi PF-4850-son.
7. Demokratik islohotlar – yurt ravnaqi, xalq farovonligi kafolati, 09.07.2025 <https://parliament.gov.uz/news>. Jahongir Shirinov, Oliy Majlis qonunchilik palatasining Korrupsiyaga qarshi kurashish va sud-huquq masalalari qo‘mitasi raisi nutqidan.
8. Mirziyoyev Sh. Hozirgi zamon va Yangi O‘zbekiston – Toshkent: O‘zbekiston, 2024.